



UDK: 37.013:811.512.133

Ma'mura BOYMIRZAYEVA,
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, PhD
Email: ugikusanovauni@gmail.com

Guliston davlat universiteti dotsenti, PhD Z.Norqo'ziyeva taqrizi asosida

TALABALARGA INGLIZ TILINI O'QITISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarga ingliz tilini o'qitish jarayonining pedagogik va psixologik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'rganishda talabalarning yoshga oid, individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, motivatsiya darajasi, kognitiv jarayonlari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqot davomida kommunikativ yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va interaktiv metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ingliz tili, pedagogik xususiyatlar, psixologik omillar, talaba, motivatsiya, kommunikativ yondashuv.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ

Аннотация

В статье рассматриваются педагогические и психологические особенности обучения английскому языку студентов высших учебных заведений. Анализируются возрастные и индивидуально-психологические особенности обучающихся, их мотивация, когнитивные процессы, а также значение современных педагогических технологий. Особое внимание уделяется коммуникативному и личностно-ориентированному подходам в обучении иностранным языкам.

Ключевые слова: английский язык, педагогические особенности, психологические факторы, студент, мотивация, коммуникативный подход.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF TEACHING ENGLISH TO STUDENTS

Annotation

The article examines the pedagogical and psychological characteristics of teaching English to university students. It analyzes students' age-related and individual psychological features, motivation, cognitive processes, and the importance of modern teaching approaches. Special attention is paid to communicative and learner-centered approaches in foreign language education.

Keywords: English language, pedagogical features, psychological factors, student, motivation, communicative approach.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ingliz tili global muloqot, ilm-fan, texnologiya va professional faoliyatning muhim vositasiga aylangan. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish masalasi strategik ahamiyat kasb etib, talabalarning nafaqat til kompetensiyasini, balki ularning kasbiy tayyorgarligi, tanqidiy fikrlashi va xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli ingliz tilini o'qitish jarayoniga faqat lingvistik emas, balki pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan yondashish zarurati yuzaga kelmoqda.

Talabalik davri shaxs rivojlanishining murakkab va mas'uliyatli bosqichi bo'lib, bu davrda bilim olishga bo'lgan ehtiyoj, mustaqil fikrlash, o'z-o'zini anglash va kasbiy yo'nalishni aniqlash jarayonlari faol kechadi. Ingliz tilini o'rganish ana shu jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, talabani ichki motivatsiyasi, psixologik holati va kognitiv imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qitish jarayonida ushbu omillar e'tiborga olinmasa, tilni o'zlashtirish yuzaki va qisqa muddatli bo'lib qolishi mumkin.

Pedagogik jihatdan ingliz tilini o'qitish o'qituvchi va talaba o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslanishi lozim. Psixologik nuqtayi nazardan esa, talabani individual xususiyatlari, o'rganish uslubi, emotsional holati va ijtimoiy tajribasi ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Shu bois zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan va kommunikativ yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolada talabalarga ingliz tilini o'qitish jarayonining pedagogik va psixologik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi, mavjud ilmiy yondashuvlar umumlashtiriladi hamda ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar beriladi.

Ingliz tilini o'qitish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar til o'rganish jarayonining ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, chet tilini o'rganish faqat grammatik qoidalarni o'zlashtirish emas, balki murakkab psixologik jarayon bo'lib, unda shaxsning tafakkuri, xotirasi, e'tibori va emotsional holati muhim rol o'ynaydi [1].

Kommunikativ yondashuvga asoslangan ilmiy ishlarda til o'rganishning asosiy maqsadi real muloqot jarayonida fikrni erkin ifoda eta olish kompetensiyasini shakllantirishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi [2]. Ushbu yondashuvda talaba ta'lim jarayonining markaziy subyekt sifatida qaraladi va u faol ishtirokchi sifatida bilimlarni mustaqil ravishda egallaydi.

Mahalliy tadqiqotlarda ingliz tilini o'qitishda talabalarning psixologik tayyorgarligi, o'rganishga bo'lgan munosabati va ichki motivatsiyasi asosiy omil sifatida ko'rsatib o'tiladi [3]. Ayrim tadqiqotchilar til o'rganish jarayonida tashqi rag'batlantirishdan ko'ra ichki motivatsiyaning ustunligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [4].

Psixologiya sohasidagi izlanishlarda esa til o'rganish ijtimoiy muhit va muloqot orqali samarali amalga oshishi qayd

etiladi. Faoliyatga asoslangan yondashuvga ko'ra, til bilim emas, balki faoliyat jarayonida shakllanadigan ko'nikma sifatida qaraladi [5]. Bu esa ingliz tilini o'qitishda interaktiv va kommunikativ metodlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Chet tillarni, xususan ingliz tilini o'qitishning pedagogik va psixologik asoslari masalasi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda til o'rganish jarayoni shaxs faoliyati bilan uzviy bog'liq murakkab pedagogik-psixologik jarayon sifatida talqin etiladi.

N.D.Galskova o'z ilmiy ishlarida chet tilini o'qitishni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi asosida tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, talaba tilni tayyor bilim sifatida emas, balki muloqot jarayonida faol egallashi lozim. Galskova chet tilini o'rganishda motivatsiya, o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va emotsional holatning muhimligini alohida qayd etadi [6]. Olimning yondashuviga ko'ra, ingliz tilini o'qitishda talabning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish ta'lim samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biridir.

L.S.Popova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chet tilini o'qitishda psixologik moslashuv va nutq faoliyatining bosqichma-bosqich shakllanishi masalalariga e'tibor qaratilgan. Popovanning fikricha, talabalarda nutqiy faoliyatni shakllantirish jarayoni ularning yosh va kognitiv imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur [7]. Ushbu yondashuv ingliz tilini o'qitishda murakkab grammatik tuzilmalarni soddalashtirilgan va muloqotga yo'naltirilgan shaklda berishni talab etadi.

E.I.Passov chet tilini o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuvning nazariy asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, til - bu bilimlar tizimi emas, balki muloqot jarayonida amalga oshiriladigan faoliyatdir. Passov ingliz tilini o'qitishda sun'iy mashqlardan ko'ra real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi [8]. Olimning fikricha, faqat shunday yondashuvga talabalarda erkin nutq ko'nikmalarini shakllantiradi.

S.G.Safonova o'z tadqiqotlarida chet tilini o'rganishda talabning ichki motivatsiyasi va mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirish masalalarini chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, talaba o'rganish jarayonining faol subyekti bo'lishi lozim va o'qituvchi esa bu jarayonda yo'naltiruvchi va motivator rolini bajaradi [9]. Safonovanning qarashlari ingliz tilini o'qitishda refleksiya va o'z-o'zini baholash elementlarini joriy etish zarurligini asoslaydi.

Mahalliy olimlar orasida J.Jalolovning chet tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. U ingliz tilini o'qitish jarayonini milliy ta'lim tizimi va talabalarining psixologik xususiyatlari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi [3]. Jalolovning fikricha, chet tilini o'rganish jarayoni faqat til ko'nikmalarini shakllantirish bilan cheklanmasdan, talabning umumiy madaniy va intellektual rivojlanishiga xizmat qilishi lozim.

G.T.Maxkamova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda esa ingliz tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarning psixologik asoslari tahlil qilingan. Olimning fikricha, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar talabalarining faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi [12]. Maxkamova ingliz tili darslarida guruhli ishlar, loyihaviy faoliyat va muammoli vaziyatlardan foydalanishni samarali vosita sifatida baholaydi.

Yuqoridagi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'qitish jarayonida pedagogik va psixologik omillarni uyg'un holda qo'llash ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Ularning ilmiy qarashlari mazkur

maqolada olib borilgan tahlil uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot metodologiyasi talabalarga ingliz tilini o'qitish jarayonining pedagogik va psixologik xususiyatlarini kompleks tarzda o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqot nazariy-metodik xarakterga ega bo'lib, unda zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining asosiy g'oyalari hamda chet tillarni o'qitish metodikasi sohasidagi ilg'or yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqotning metodologik negizini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kommunikativ yondashuv va faoliyatga asoslangan yondashuv tashkil etadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi doirasida talaba o'quv jarayonining markaziy subyekti sifatida qaralib, uning individual psixologik xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlari asosiy mezon sifatida belgilandi. Ushbu yondashuv ingliz tilini o'qitishda talabning ichki motivatsiyasini shakllantirish va mustaqil o'rganish faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ yondashuv metodologiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unda ingliz tilini o'rganish jarayoni real muloqotga yaqinlashtirilgan sharoitda tashkil etildi. Ushbu yondashuv doirasida talabalarining nutqiy faoliyatini faollashtirish, ularni fikrini erkin ifoda etishga undash hamda til birliklarini amaliy muloqot jarayonida qo'llashga yo'naltirilgan metod va usullar tanlandi. Kommunikativ yondashuv tilni bilim sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv esa ingliz tilini o'rganish jarayonini talabning faol harakatlari bilan bog'lashni ko'zda tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til ko'nikmalari faqatgina passiv qabul qilish orqali emas, balki faol nutqiy faoliyat jarayonida shakllanadi. Shu sababli tadqiqotda ingliz tili darslarida muammoli vaziyatlar yaratish, loyihaviy faoliyat, guruhli va juftlikda ishlash kabi usullardan foydalanish metodologik jihatdan asoslandi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus tadqiqot metodlaridan keng foydalanildi. Xususan, ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish metodi yordamida chet tillarni o'qitish bo'yicha mavjud nazariy qarashlar o'rganildi va tizimlashtirildi. Taqqoslash metodi orqali turli metodik yondashuvlarning samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi. Umumlashtirish metodi esa olingan ilmiy xulosalarni yagona konseptual asosga birlashtirish imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda pedagogik kuzatuv metodi muhim o'rin egalladi. Ushbu metod orqali ingliz tili mashg'ulotlari jarayonida talabalarining faolligi, nutqiy ishtiroki, motivatsiya darajasi va psixologik holati kuzatildi. Kuzatuv natijalari ingliz tilini o'qitishda qo'llanilayotgan metodlarning pedagogik va psixologik samaradorligini baholashga xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasida psixologik tahlil usullari ham qo'llanildi. Talabalarining e'tibor, xotira, tafakkur va emotsional holatining ingliz tilini o'zlashtirish jarayoniga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilindi. Ushbu tahlil ingliz tilini o'qitishda psixologik qulay muhit yaratish zarurligini asoslashga imkon berdi.

Metodologik yondashuvlarning uyg'unligi tadqiqotning yaxlitligini ta'minlab, ingliz tilini o'qitish jarayonini pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilish imkonini berdi. Natijada tadqiqotda qo'llanilgan metodologiya ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Natija. Tadqiqot doirasida ingliz tilini o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash va ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirini baholash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba oliy ta'lim muassasasining 1-2-bosqich

talabalari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda jami 495 nafar talaba qatnashib, ular teng miqdorda tajriba guruhi va nazorat guruhiga ajratildi.

Nazorat guruhida ingliz tili mashg'ulotlari asosan an'anaviy o'qitish usullari asosida tashkil etildi. Tajriba guruhida esa shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ va psixologik omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan metodika asosida darslar olib borildi. Xususan, interaktiv metodlar, guruhli va juftlikda ishlash, rol o'yinlari, muammoli vaziyatlar hamda refleksiya elementlaridan tizimli foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlari boshlanishidan oldin har ikki guruh talabalari ingliz tili bo'yicha dastlabki diagnostik testdan o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, tajriba guruhida talabalarning 26 foizi yuqori darajada, 44 foizi o'rta darajada va 30 foizi past darajada til kompetensiyasiga ega ekanligi aniqlandi. Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 24 foiz, 46 foiz va 30 foizni tashkil etdi. Bu holat tajriba boshlanishida guruhlar tayyorgarlik darajasi jihatidan deyarli teng bo'lganligini ko'rsatadi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida qayta diagnostika o'tkazildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalarning ulushi 26 foizdan 52 foizga oshdi, ya'ni 26 foizlik ijobiy o'sish kuzatildi. O'rta darajadagi talabalarning ulushi 44 foizdan 36 foizga kamaydi, past darajadagi talabalarning ulushi esa 30 foizdan 12 foizgacha qisqardi. Bu ko'rsatkichlar tajriba guruhida ingliz tilini o'zlashtirish darajasi sezilarli yaxshilanganligini ko'rsatadi.

Nazorat guruhida esa yuqori darajadagi talabalarning ulushi 24 foizdan 32 foizga oshdi, o'rta daraja 46 foizdan 44 foizga o'zgardi, past darajadagi talabalar esa 30 foizdan 24 foizgacha kamaydi. Bu natijalar ham ijobiy o'zgarish mavjudligini ko'rsatsada, tajriba guruhi bilan solishtirilganda o'sish sur'ati past ekanligi aniqlandi.

Tajriba davomida talabalarning o'quv motivatsiyasi ham alohida o'rganildi. So'rovnomaga natijalariga ko'ra, tajriba guruhida ingliz tilini o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiya darajasi 48 foizdan 76 foizga oshdi. Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich 50 foizdan 58 foizgacha o'sdi. Bu esa psixologik jihatdan qulay ta'lim muhiti va interaktiv metodlar talabalarning qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaganligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tajriba guruhi talabalarining 68 foizi ingliz tilida erkin fikr bildirishga bo'lgan ishonchi ortganligini bildirgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 42 foizni tashkil etdi. Talabalarning nutq faolligi tajriba guruhida 35–40 foizga oshgani kuzatildi, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 15–18 foiz atrofida bo'ldi.

Umuman olganda, tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilini o'qitishda pedagogik va psixologik xususiyatlarni kompleks hisobga olish, shaxsga yo'naltirilgan va kommunikativ yondashuvlarni qo'llash ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa va tavsiyalar. Olib borilgan tadqiqot va tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarga ingliz tilini o'qitish jarayoni faqat lingvistik bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, murakkab pedagogik va psixologik omillar tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Ingliz tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ va faoliyatga asoslangan yondashuvlarni uyg'un holda qo'llash ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tajriba-sinov natijalari asosida aniqlanishicha, pedagogik-psixologik xususiyatlar hisobga olingan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalar bilim darajasining oshishiga, ularning nutqiy faolligi va o'quv motivatsiyasining kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushining keskin ortishi, past darajadagi talabalarning kamayishi hamda ichki motivatsiyaning sezilarli oshishi qo'llanilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, ingliz tili mashg'ulotlarida psixologik qulay muhit yaratish, talabalarni erkin fikr bildirishga undash, ularning individual imkoniyatlarini hisobga olish ta'lim jarayonining sifatini oshiruvchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi. Interaktiv metodlar va kommunikativ topshiriqlar talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirib, ingliz tilida muloqot qilishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitishda an'anaviy yondashuvlarga nisbatan zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarning ustunligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili ta'limini tashkil etishda pedagogik jarayonni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

Ingliz tili mashg'ulotlarini tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan va kommunikativ yondashuvlarni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash lozim.

Talabalarning psixologik xususiyatlari, motivatsiya darajasi va individual o'rganish uslublarini hisobga olgan holda dars jarayonini rejalashtirish tavsiya etiladi.

Ingliz tili darslarida interaktiv metodlar, jumladan, munozara, rol o'yinlari, loyihaviy va muammoli topshiriqlardan tizimli foydalanish zarur.

Talabalarda ichki motivatsiyani oshirish maqsadida refleksiya, o'z-o'zini baholash va mustaqil ishlash elementlarini joriy etish lozim.

Ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik va psixologik kompetensiyasini oshirishga qaratilgan malaka oshirish mashg'ulotlarini muntazam tashkil etish maqsadga muvofiq.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qilib, kelgusida mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007. – 410 p.
2. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.
3. Jalolov J. J. Chet tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
4. Gardner R. C. Motivation and Second Language Acquisition. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 412 p.
5. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
6. Galskova N. D. Sovremennaya metodika obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva: Akademiya, 2004. – 336 s.
7. Popova L. S. Psikhologiya obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva: Prosveshcheniye, 2008. – 256 s.
8. Passov E. I. Kommunikativnaya metodika obucheniya inostrannomu yaziku. – Moskva: Prosveshcheniye, 2000. – 208 s.
9. Safonova S. G. Kulturovedcheskiy podkhod k obucheniyu inostrannym yazykam. – Moskva: Vysshaya shkola, 1996. – 304 s.
10. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2015. – 288 p.
11. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 312 p.
12. Maxkamova G. T. Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 220 b.
13. Leontev A. N. Deyatel'nost. Soznaniye. Lichnost. – Moskva: Politizdat, 1983. – 304 s.